

## ZAMONAVIY MUHITDA O‘ZBEK XALQINING MEHNATSEVARLIK AN’ANASINI IJTIMOIIY-IQTISODIY TARBIYA SIFATIDA NAMOYON BO‘LISHI

**Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich**

*Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi*

**E-mail:** [mamadaliyev\\_m@umail.uz](mailto:mamadaliyev_m@umail.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy muhitda o‘zbek xalqining mehnatsevarlik an’anasini ijtimoiy-iqtisodiy tarbiya sifatida namoyon bo‘lishi masalasi muhokama qilinadi. Shuningdek, hozirgi paytda yoshlarni mehnatsevarlik va shu orqali vatanparvarlik kabi axloqiy tamoyillarni shakllantirish masalasi dolzarb masala ekanligi haqidagi ma’lumotlar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** mehnatsevarlik, vatanparvarlik, o‘zbek xalqi, axloqiy tamoyillar.

## ПРОЯВЛЕНИЕ ТРАДИЦИИ УЗБЕКИСТАНА ТРУДА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ КАК ФОРМА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается вопрос проявления традиции трудолюбия узбекского народа в форме социально-экономического воспитания в современных условиях. В нем также говорится, что в настоящее время остро стоит вопрос воспитания у молодежи таких нравственных принципов, как трудолюбие и, через него, патриотизм.

**Ключевые слова:** трудолюбие, патриотизм, узбекский народ, моральные принципы.

## MANIFESTATION OF THE UZBEKISTAN'S TRADITION OF WORK IN THE MODERN ENVIRONMENT AS A FORM OF SOCIO-ECONOMIC EDUCATION

**Abstract.** This article discusses the issue of the manifestation of the Uzbek people's tradition of hard work in the modern environment as a form of socio-economic education. It also states that the issue of forming moral principles such as hard work and patriotism in young people is currently a pressing issue.

**Key words:** hard work, patriotism, Uzbek people, moral principles.

An’analar bizni jamiyatda yashash, ehtiyoj va manfaatlarni anglash va ularni hayotiy masala sifatida hal qilishni o‘rgatib, ijtimoiy mehnat taqsimotida katta o‘rin egallaydi. An’analar avvalo tarbiya maskani, vositasi sifatida kishilarni avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ilmiy, ijtimoiy meroslarini yetkazib, mehnat qilish, mehnatsevarlik axloqiy tamoyillarini shakllantirib kelmoqda.

Mehnatga bo‘lgan qarashlarda Sharq va G‘arb faylasuf mutafakkirlari bir qator fikrlarni bildirib o‘tishgan. Masalan, professor S.Karimovning fikricha, “mehnat aslida ma’naviy fazilat hisoblanib, shaxsning ishchanligi, mehnatsevarligini ifodalaydigan tushuncha hisoblanadi. Inson mehnatining ijtimoiy mohiyati, uning estetik xususiyatlari masalalari ilk bor Suqrot, Aristotel, keyinchalik I.Kant tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsada, mehnatning ijtimoiy mohiyati inson shaxsining shakllanishida muhim omil bo‘lganligi Sharq mutafakkirlari qarashlarida o‘ziga xos aks ettirilgan”[4.400-b.]. Taniqli axloqshunos Abdulla Sherning darsligida yozilishicha, “inson mehnati aql vositasida amalga oshadi, u o‘zi, yaqinlari, o‘z jamiyati va kelajak avlodning yaxshi yashashi uchun mehnat qiladi...Mehnatsevarlik tamoyili mehnat jarayonida shaxsning o‘z-o‘zini namoyish etishiga, o‘ziligi ro‘yobga chiqarishiga, o‘zgalar bilan munosabatlar o‘rnatishiga imkon yaratuvchi axloqiy fazilatdir”[5.277-b.].

Shuningdek, mehnat, mehnatsevarlik tamoyili haqida Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Alpomish singari mumtoz asarlarida keng tahlil etilib, ularda mehnatsevarlik tamoyillarini yosh avlodga singdirishning an’anaviy yo‘llari, kasb-hunar tutishning odoblari[7.83-b.] “bir yigitga qirq hunar oz”[6.44-b] xalqchil tamoyil orqali tushuntirilgan.

Demak, o‘tmish allomalar va xalq og‘zaki hamda yozma ijodida yoritilgan mehnat va mehnatsevarlikka bo‘lgan da’vat, pand-nasihatlari bir necha yo‘nalishlarga bo‘linadi. Birinchi yo‘nalish, ijtimoiy-iqtisodiy tarbiya sifatida mehnatsiz turmushni, inson hayotini tasavvur qilib bo‘lmasligi, dehqonning mehnati tufayli mamlakat, jamiyat to‘qchiligi amalga oshishini uqtiruvchilar (“Avesto”da, Kaykovusning “Qobusnoma, Ibn Xaldun, Beruniy, A.Navoiy, v.h); ikkinchi yo‘nalish, mehnatsevarlikni axloqiy tamoyil sifatida ko‘ruvchilar, shaxsni shakllanishida asosiy axloqiy mezon, mehnat axloq-odob mezon, halol mehnat qilish, kasb-hunarga muhabbat va ularni odobini targ‘ib qiluvchilar (Husayn Voiz Koshifiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Najmiddin Kubro, Naqshband, Nizomiy Ganjaviy), uchinchi yo‘nalish, an’anaviy xalq og‘zaki va yozma ijodida mehnatsevarlikka

yo‘naltiruvchi, mehnat insonni ulug‘lashi haqida maqollar, xalqning naqliy va aqliy bilimlari, mehnatni sevish Vatanni sevish, yigitlarni mardligi, bilagidagi kuchini mehnat aniqlashini uqtiruvchi manbalar (Alpomish dostoni, o‘zbek xalq maqollari, ertak va rivoyatlari).

Hozirgi paytda yoshlarni mehnatsevarlik va shu orqali vatanparvarlik kabi axloqiy tamoyillarni shakllantirish masalasi dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini” tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 1059-son qaror qabul qildi. Qarorda “yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish”[2.] vazifasi belgilab olingan.

Mehnatsevarlik tarbiyasi o‘sib kelayotgan yosh avlodda mehnatga qiziqishni shakllantirish, fuqarolik jamiyatni rivojlantirishda va bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik, ishbilarmonlik ruhini tarkib toptirish alohida o‘ringa egadir. Aslida, mehnatsevarlik yoshlarni amaliy ishlarga, iqtisodiy faol insonga aylantirish, mehnatsevarlik axloqiy tamoyilini ongi-qalbiga tarkib toptirish kabi aniq maqsadga qaratilgan jarayon bo‘lib, mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Zero, mehnatsevarlik kishi kamoloti va umuman, jamiyat ravnaqida ham muhim ahamiyat kasb etadi. “Mehnatning axloqiy jihatdan qimmatini uning jamiyat uchun ahamiyati bilan belgilanadi. Shuning uchun ham bolalarga ularning qo‘lidan keladigan, ijtimoiy ahamiyatli vazifalarni qo‘yish muhim sanaladi. Chunki o‘z mehnatining ijtimoiy ahamiyatini tushunish har bir bolaning jamiyat hayotiga kirib borishi va o‘zini uning foydali a‘zosi sifatida his etishiga imkon beradi”[3.106-b.].

Mehnatsevarlik axloqiy tamoyil sifatida yoshlikdan boshlanadigan fuqarolik tarbiyasining asoslarini tashkil etib, mehnat tufayli farovonlik, obodlik va mehnat munosabatlari (huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, v.h.)ni shakllanishiga olib keladi. Bugungi kunda mehnatsevarlik an‘analari davomi sifatida fuqarolik jamiyatida iqtisodiy omillar ustuvorligini ko‘rish mumkin. O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda yuzdan ziyod kasb-hunar mavjud bo‘lganligi xususida fikrlar mavjud. Xususan, hozirgi paytda ushbu an‘analarni tiklash, xalq orasida obod turmushga mehnatsevarlik an‘analarini o‘z

axloqida mahkam tutish orqali erishish mumkinligi ta’kidlanadi. Bugungi kunda mehnat qilish avvalo, birinchidan, maqsad va uning natijasini belgilab olish, dastlabki tasavvurni yaratish; ikkinchidan, mehnat qilishdan ko‘zlangan maqsad bo‘yicha kerakli manbalarni tanlab ajratib olish (aqliy va jismoniy mehnat); uchinchidan, mehnat sohasini aniq tanlash, iqtidorni belgilash va foydali mehnat turlarini tanlab olish; to‘rtinchidan, erishilgan natijalarni mehnatsevarlik qobiliyati bo‘lmish kreativlik, innovatsion yondashuv mahsuli deb bilish, mehnatni huquqiy tashkil eta olish kabi zamonaviy tendensiyalarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, mehnatsevarlik an‘analari tarbiya vositasi, savdo-iqtisodiy munosabatlar, xalq irodasi, millat yaratuvchiligi va bunyodkorligining nishonasi sifatida asrlarga tenglashib, milliy-etnik muhitni o‘ziga xosligini saqlovchi, milliy identifikatsiyalarni shakllantiruvchi omildir. Ushbu o‘zbek xalqining milliy-etnik xususiyatini beruvchi mehnatsevarlik an‘analari ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarda xalqimizning irodasini, xalq yozuvchilari va adiblari uchun adabiy muhitni shakllantirib kelgan makon va zamon belgisidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son Qarori //https://lex.uz/docs/-3864155
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori //https://lex.uz/docs/4676839
3. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T., «Fan va texnologiya», 2008,106-bet.
4. Karimov S. Sharq ijtimoiy tafakkuri tarixidan. T., O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati., 2016, 400-bet.
5. Sher, Abdulla Axloqshunoslik. Darslik. T., O'zbekiston faylasuflari jamiyati, 2010, 277-b.
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. T., Yulduzcha. 1990, 44-bet.